Xulosa qilinganda, kaptarsimonlar turkumi qushlarining yovvoyi turlarida gelmintlar populyatsiyasi yilning barcha mavsumida uchrab, yuqori zararlanish darajasi yoz mavsumida, ayniqsa tasmasimon chuvalchanglar sestodalarning turlari bilan zararlanganligi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дубинина М.Н. Паразитологическое исследование птиц // Ленинград. Наука 1971. 140 с.
2. Корнюшин В.В., Король Э.Н., Гребень О.Б. Новые в фауне Украины виды Давенеид (Cestoda, Cyclophyllidea) птиц отряда Columbiformes // Вестник зоологии, Supplement N 23: 2009. С. 77-84.
3. Parsani HR, Momin RR, Lateef A, Shah NM. Gastro-intestinal of pigeons (*Columba livia*) in Gujarat, India. /Jurnal of Biology, 2014, Vol.16, 63-71 pp.
4. en.wikipedia.org. Жизненный цикл R. Echinobothrida, R. Tetragona.



SUV TANQISLIGI JARAYONIDA DARAXTLARNING SUVGA BO‘LGAN TALABI

Atabayeva Gulnoza Sattarganova

Xorazm viloyati Hazorasp tumani

24-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Ismoilova Nilufar Iskandarovna

Xorazm viloyati Hazorasp tumani

24-maktab huquq va tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada suv tanqisligi sharoitida degradatsiyaga uchragan yerlarda o‘rmonlar barpo qilish, tuproq unimdonligi pastligi va sizot suvlari sathini inobatga olib amalga oshirish xususida fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar: Degradatsiya, tuproq, unimdonlik, sho‘rlanish, ekologiya, muvozanat, mineralizatsiya, sizot suvlari va daraxt.

Degradatsiyaga uchragan yerlarda o‘rmonlar barpo qilish tuproqning unimdonligi pastligi, sho‘rlanishi va sizot suvlari sathini inobatga olib, amalga oshiriladi. Shunda ana shu xususiyatlariga qarab, daraxt turi tanlanadi. Yuqori sho‘rlanish, sizot suvlari sathi va mineralizatsiyani kamaytiruvchi daraxt turlari ekilsa, ekologik muvozanat taminlanadi va daraxt xilma-xilligi biodrenaj potensiyalini ko‘rsatadi.

Degradatsiyaga uchragan yerkarda daraxtlar ekish, qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish uchun yaroqsiz bo‘lgan yerkarning tuproq unimdonligini oshirishda va qishloq aholisi qurilish materiallari, yoqilg‘i mahsuloti va yem-xashakka bo‘lganehtiyojini qondirishda juda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga daraxtlar transpiratsiya orqali yer yuzasiga yaqin joylashgan va mineralizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan sizot suvlari sathini pasaytiradi.

Xorazm viloyatida sizot suvlari sathi va mineralizatsiya yuqori, shu bois ko‘pchilik yer maydonlarining tuprog‘i sho‘rlangan vas ho‘rlanishga moyil. Bunday sharoitda daraxtzorlar barpo etish uchun tuproq sho‘rlanishiga chidamli, transpiratsiya qobiliyati yuqori va tez o‘sadigan daraxt turlarini tanlab olish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotning maqsadi uch turdag‘i mahalliy daraxtlarning barg suv potensialini o‘lchagan holda ularning suvga bo‘lgan talabini aniqlash va mavsum mobaynida daraxtlarda suv tanqisligi holatini aniqlashdan iborat. Tajribada daraxtlarni egatlab, tomchilatib sug‘orish variantlarida kundalik va mavsumiy barg suv potensiali aniqlandi va ularning barg suv potensiallari taqqoslandi.

Mavsum mobaynida havo harorati o‘rtacha 17°C bo‘lib, kundalik minimum va maksimum havo harorati -8°C va 43°C oralig‘ida bo‘ldi. o‘rtacha havo namligi yil mobaynida 26-86 foiz yillik yog‘in miqdori esa 41,2 mm ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatida o‘sadigan mahalliy o‘n tur daraxtni monitoring qilish natijasida, ulardan sho‘rlanishga chidamli va mahalliy aholi tomonidan ekiladigan uchtasi tanlab olindi. Ular jiyda, qayrag‘och va turang‘ildan iborat. Ammo ularni degradatsiyalanayotgan tuproqda ekishga tavsiya qilishdan oldin suv tanqisligi, sho‘rlanish, oziq moddalar taqachilligi, biomassasining taqsimlanishiga a’lovida e’tibor berish kerak.

Sug‘orish suvning tanqisligi daraxtlar ildiz tizimi sizot suviga yetib borguncha chidamliliginu talab qiladi. o‘zbekistonda sug‘orishning hozirgi usullari 0,67 deb baholangan, shundan egatlab 64%, bo‘laklab 31 % va bostirib sug‘orish 5 % ni tashkil etadi. Tomchilatib sug‘orish egat usuliga qaraganda 31-39 % suv

tejaladi. Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi ildiz o‘sishi va daraxtning to‘liq eksplutatsion ko‘rsatkichlarini oshiradi. Demak, tochilatib sug‘orish usulida suv dalaning hamma joyiga bir xilda yetkazib beriladi, sug‘orish suvi tejali va sug‘orish qismidan tashqarida begona o‘tlar o‘sishining oldini oladi. Ammo sho‘rlangan tuproqlarda topchilatib sug‘orish usuli unchalik qo‘l kelmaydi. Tomchilatib sug‘orishda tuz miqdori qoniqarli darajada saqlansa-da, ildiz tizimi atrofida tuz yig‘ilishi kuzatiladi. Bu natijalar sug‘orish suvlari yetarlicha bo‘lmagan tuproqlarda tomchilatib sug‘orish usulida daraxtlarning moslashish, o‘sish ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Tanlangan uchta daraxtni o‘rganish natijasi, sho‘rlanish darajasi yuqori va sug‘orish suvlari tanqisligi sharoitida biomassasining taqsimlanishing o‘zgaruvchilikini ko‘rsatadi.

Fiziologik tadqiqotlarda ishlatalilgan suvning samaradorligi deb fotosintezga sarflangan suvning



transpiratsiyaga nisbati olinadi. o‘simlik to‘qimasidan bug`langan suv miqdori, qabul qilingan suv miqdoridan ko‘p bo‘lsa, suv tanqisligi paydo bo‘ladi. Suvning o‘simlik tanasi orqali to‘xtovsiz harakatlanib turishi uchun suv tanqisligi 5-10% dan ormasligi kerak. Agar turoqdagi namlik kamayib ketsa, suv tanqisligi 25 % gacha ko‘tariladi.

Har bir daraxtda 6 kun davomida 3 ta takroriy ravishda barg olinib, barg suv patensiali aniqlanganda, daraxtlarga suvni tejab tomchilatib berishimizga qaramasdan, bu daraxtlarda stress holat yuzaga kelmadi.

o‘rganilgan daraxtlarni barg suv patensiyali bir-biridan farq qildi, ammo ularda suv tanqisligi jarayoni kuzatilmadi. Shunday bir ilmiy faraz bor: harorat qancha ko‘tarilgani sayin barg suv patensiali shunga qarama-qarshi tarzda namoyon bo‘ladi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdullayev S.A, Boirov A.J, Sattarov J.S. “Xorazm viloyati tuproqlari”. Ozbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, – Toshkent: Fan. 2003
2. Haydarov Q.H, Hojimatov Q.H, “o‘zbekiston o‘simliklari” – Toshkent: o‘qituvchi 2013.



O’ZBEKISTONDAGI XUSHBO’Y VA XUSHT’AM O’SIMLIKLER VA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI

Baqoyeva Sanobar Salimovna

Buxoro viloyati Jondor tumani
3-maktabning biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi xushbo’y va xusht’am o’simliklar va ulardan foydalanan usullari xususida mulohaza yuritiladi, o’simliklarning foydali va zararli jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: o’simlik, fitonsit, moddalar, antibakteriosit, organizm, oziq- ovqat, xususiyat, hazm, giyoh, efir moylari, mahsulot.

Xushbo’y va xushtam o’simliklar biologik aktiv moddalarga boy bo’libgina qolmasdan, balki fitonsitlik hamda antibakteriositlik xususiyatlariiga ham egadirlar. Shu sababli ulardan oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda hamda tayyorlashda foydalanganda, oziq – ovqat mahsulotlari sifatini, ta’mini, to’ylimligini, organizmda tez hazm bo’lishini ta’minlabgina qolmasdan, balki ularni tez aynib qolishdan saqlashda ham foydalanan mumkin. O’zbekistonda xushbo’y va xusht’am o’simliklardan homashyo sifatida foydalanan, ulardan efir moylarini ajratib olishni yo’lga qo’yish uchun barcha imkoniyatlar bor.

Biz tabiyi holda o’sadigan efir moyli o’simliklardan to’g’ri va oqilona foydalishni yo’lga qo’yishimiz bilan bir qatorda, qimmatbaho xom ashya manbayi hisoblanadigan, yuqori sifatli efir moylarini beradigan limonli shuvoq, yorongul, yalpiz, mavrak, rayhon, arpabodiyon, kiyiko’t, tog’rayhon, alkaro’t, zira, sherolg’in kabi o’simliklarni ekinga aylantirsak, homashyo manmayi mustahkamlanar edi. Ulardan olinishi mumkin bo’lgan efir moylari va tayyorlangan mahsulotlar yuqori sifatli bo’lib, nafaqat mamlakatimiz standartiga hatto jahon standartlariga ham to’g’ri kelar edi. Bu yechimlar amalga oshirilsa, yuqori sifatli efir moylari tayyorlanib, ulardan turli – tuman mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalansilsa bu nafaqat ijtimoiy samaradorlikga ega bo’ladi balki iqtisodiy jihatdan ham foyda beradi.

Xushbo’y va xusht’am o’simliklar boyliklaridan foydalanganda o’simlik guruhlarining ekologik muvozanatiga ta’sir etmaslik uchun ularni yig’ishtirib olish va tayyorlash qoidalariga rioya qilinsa, o’simliklar orasidagi muvozanat buzilmaydi, balki ular yo’qotgan massalari qayta tiklanadi. O’simlik xom ashylarini yig’ishtirishda turlarni bilmaslik, ularning biologik xususiyatlarini hisobga olmaslik, unumli va oqilona foydalananmaslik xom ashya uchun yig’ishtirilayotgan o’simlik turlari hamda boyliklariga katta zarar yetkazadi.

Xushbo’y va xushtam o’simliklarning a’zolarida to’plangan efir moylarining miqdori ta’sir etuvchi omillarga bog’liq. Birinchi navbatda, o’simliklarning tarqalish hududi, o’sish sharoiti, rivojlanish davrlari, o’simlik guruhlari, tuproq va ob – havo sharoitlari quyosh yorug’ligining va nurlarining ta’siri hamda genetik jihatidan uzviy barqarorligi muhim ahamiyatga ega.

Xushbo’y va xusht’am o’simliklar efir moyining sifatli hamda ta’sirchan bo’lish payti ko’pchilik o’simliklarning g’unchalash va gullash davriga to’g’ri keladi. Ana shu paytda o’simliklarning yer ustki massalari yig’ishtirilib olinishi lozim. G’uncha va gullari to’liq yetilganda, urug’ va mevalari esa to’liq pishganda, ildiz, ildizpoya, tugunak hamda piyozlari o’simlik o’sish davrining oxirida, ya’ni o’simlik uyquga ketishi oldidan yig’ishtirib olinadi.

Xushbo’y va xusht’am o’simlik boyliklaridan noo’rin foydalishlik, ularning biologik xususiyatlarini hisobga olmaslik, yig’im terimni belgilangan muddatlarda tashkil etmaslik belgilangan rejadan ko’proq xom ashya yig’ishtirish, boyliklarni noo’rin payhon qiluvchi shaxslarga yo’l ochib berish o’simlik turlarining yo’qolib ketishiga hamda boyliklarining qayta tiklanishiga zarar keltiribgina qolmasdan, ayrim o’simlik turlari yo’qolib ketishiga sabab bo’ladi. Shu sababli xushbo’y va xushtam o’simlik xom ashylarini tayyorlashda ilmiy asosda yaratilgan tadbir chora va qoidalarga to’liq amal etish kerak.

Ziravorlangan oziq – ovqat mahsulotlari tarkibida turli vitaminlar, xushbo’y, juda ham yoqimli efir moylari, turli xil organik kislotalar karbon suvlar, oshlovchi moddalar, mikro va makro elementlar, fitonsit hamda bakterisit moddalari bo’ladi. Bunday biologik aktiv moddalar bilan boyigan oziq ovqat mahsulotlari ishtahta bilan tanovul etiladi hamda osonlik bilan hazm bo’ladi. Natijada inson organizmida modda almashinuv jarayoni yaxshilanadi, turli kasalliklarga bo’lgan



qarshiligi kuchayadi. Hozirgi kunda eng ko'p ishlataladigan xushbo'y va xushtam o'simliklardan zira, oq zira, qora zira, kariandr, karafs, qizil va achchiq qalampir, yer qalampir, rayhon, tog' rayhon, yalpiz, kiyiko't, limo'no't, mavrak, sarimsoq piyoz, qarqand, jambil, zanjabil, zarchava, yerchoy, tog' jambili va bir qancha ko'plab boshqa o'simliklar ishlataladi.

Tog' jambili: sershox, pastbo'yli (10 – 15) cm chala butalardan iborat, mayda, teskari tuxumsimon yoki lansetsimon qarama – qarshi joylashgan. Guli mayda pushti va qizg'ish hushbo'y. Mevasi kosachabarglari bilan qo'shilib o'sgan 4 ta yong'oqcha. O'zbekistonda 2 ta turi bor. Tog'jambili yozning boshlarida gullab oxirida meva qiladi. U efir moyli va shirali o'simlik bo'lib xalq tabobatida ishlataladi.

Limo'no't: ikki uyli chirmashib o'sadi bargi qizil cho'ziq tuxumsimon, o'tkir uchli, cheti kungurali bandli ketma – ket guli bir jinsli, oq yoki pushti xushbo'y. Mevasi 1-2 urug'li, dumaloq, qizil, limon mazasi va hidi bor. Mevasi va urug'i tarkibida limon, olma va boshqa organik kislotalar unglevodlar vitamin C, efir moylari va boshqa darmon dorilar mavjud. Limo'no'tning kukuni aqliy va jismoni charchaganda mehnat qilish va ko'rish qobiliyati susayganda markaziy nerv sistemasi faoliyatini kuchaytiruvchi shuningdek yurak qon– tomir sistemasi va nafasni yaxshilovchi vosita sifatida ishlataladi.

Yerchoy: Ranodoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't, bo'yi 45 sm. Gullari sariq mevasi murakkab pista. Yerchoyning yerostki qismi tarkibida gein gliozidi, 0,42 % gacha efir moyi 36 % dan ortiqroq oshlovchi moddalar organik kislotalar va boshqalar bor. Yerchoy xalq tabobatida tish kasalliklarini davolash va og'riqni qoldirishda, damlamasi meda – ichak kasalliklarini davolashda ishlataladi.

Jambil: Labguldoshlar oilasiga mansub 1 yillik xushbo'y o'simlik. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarda ziravor o'simlik sifatida ekiladi. Bo'yi 20 – 30 sm poyasi yuqori qismidan. Poyasi yuqori qismidan shoxlaydi, barg chetlari tekis etli. Gullari pushti, boshoqsimon to'pgullarga yig'ilgan poy va shoxlarining uchida joylashgan. Jambil atir-upa sanoatida va meda ichak kasalliklarini davolashda ishlataladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tabiiy xolda o'sadigan xushboy va xushtam o'simliklarning oxirigacha aniqlangan emas. Keyingi yillarda o'tkazilishi lozim bo'lган yanada chuuqur ilmiy tadqiqotlar yangidan – xushbo'y va xushtam giyohlarning topilishiga olib keladi. Xushbo'y va xushtam o'simliklardan foydalanish faqat ularning tarkibida saqlanadigan efir moylari miqdorining ko'pligi bilan belgilanmasdan, balki ular saqlaydigan komponentlarning miqdori hamda xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqidir.

Xushbo'y va xushtam giyohlardan oziq – ovqat sanoatida keng miqiyosda ishlatalish lozim bo'lган turlar mavrak, kiyiko't, zufo, rayhon, tog' rayhon, yalpiz, zanjabil, upor, bo'ymadaron, andiz, zira va shu kabi turkumlarni tashkil etadi.

Xushbo'y va xushtam o'simlik xom ashyolaridan foydalanayotganda, albatta, ular yig'im – terimini o'tkazish, tayyorlash, quritish saqlash hamda qo'llash to'g'risidagi ko'rsatmalarga to'liq rioya qilish zarur. Aks holda ulardan foydalanganda ham yaxshi natijalar bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktablarning biologiya darsliklari.
2. M.N.Nabihev. Botanika atlas lug'ati. Toshkent, "Fan".1969
3. A.To'xtayev. O'simliklar anotomiysi va morfologiyasi. Toshkent,"O'qituvchi".1994.
4. A.Xamidov. Botanika asoslari. Toshkent,"Mehnat".1990.
5. Y.X.To'raqulov, J.A.Musayev. Umumiyl biologiya. Toshkent,1996.



BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Gaipova Dilorom Kuchkor baiyevna

Xiva shahar 15-sон мактаб о’қитувчisi

Telefon: +998 (91) 428 09 07

gaipova.dilorom_15@inbox.uz

Sharipov Shohrux Baxromovich

Shovot tumani 44-сон мактаб о’қитувчisi

Telefon: + 998 (99) 560 10 35

sharipov.shohrux_44@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola biologiya fanini o’qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari foydalanish orqali o’quvchilarda kompetentligini rivojlantirish haqida.

Kalit so’zlar: Modul, texnologiya, blok, innovatsiya, kompetensiya.

So’nggi yillarda mamlakatda ta’lim - tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog’cha tarbiyalanuvchilari ,o’quvchilari va talaba yoshlarda zamonaviy bilim ko’nikmalarni shakllantirish,ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o’rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani,ta’limning uzviyligi va uzlusizligini ta’minalash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biologiya fanini o’qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo’llashda quyidagi ta’lim tehnologiyalaridan foydalaniladi:

1. Modulli ta’lim texnologiyasi.
2. Muammoli ta’lim texnologiyasi.
3. Loyihalash texnologiyasi.

Modulli ta’lim texnologiyasi: modulli ta’lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. modul lotincha so’zdan olingan bo’lib, qism (blok) degan ma’noni bildiradi. Biologiya fanini o’qitishda modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya’ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o’quvchilar mustaqil o’zlashtirishlari uchun o’quv topshiriqlari tuziladi.

Modul dasturlari mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o’quvchilarning dars davomida bajaradigan o’quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo’yicha berilgan ko’rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o’zida mujassamlashtiradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi: Ta’lim jarayonida salmoqli o’rin egallagan muammoli “aqliy hujum” darsi, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) darslar muammoli ta’lim texnologiyasiga asoslanadi. mazkur darslarning o’ziga xos jihatni dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta’lim jarayonida o’qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o’quvchilarning faol mustaqil faoliyatni natijasida bilim, ko’nikma va malakalarini ijodiy o’zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Loyihalash texnologiyasi: loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma’lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o’quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog’lanishlarni amalga oshirish sanaladi.

Ta’lim vositalari o’quvchilarda bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish hamda fanga oid kompetentsiyalarni egallanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, biologik ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida o’quvchilarda kompetentligini rivojlantirish jarayonida samarali natijaga erishiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati

1. Tolipova J. Biologiyani o’qitishda innovatsion texnologiyalar. pedagogika oliv ta’lim muassasalari ta’lim oluvchilari uchun darslik. Toshkent, 2014.
2. Niyozov Q. Biologik ta’lim jarayonida o’quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari.- Namangan. 2017 yil.



BIOLOGIYA FANINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH

Himoilova Laylo

Navoiy viloyati Xatirchi tumani
81- maktab biologiya fani o’qituvchisi
Tel:+998 93 953 13 86

ANNOTATSIYA: ta’lim jarayonini yanada yaxshilash, o’quvchilarni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonlari, texnologiyalardan “Keys”, “Insert”, “Waster”, Venn diagrammasi, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish turlari haqida fikrlar keltirilgan

KALIT SO‘ZLAR: ta’lim texnologiyalari, “Keys”, “Insert”, “Waster”, Venn diagrammasi, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlari

Ta’lim jarayonida o‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligida, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealaming mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi va bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar uchun o‘quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o‘qitishdan ko‘zda tutilgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlaniruvchi maqsadlami amalga oshirish orqali shaxsnинг har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘qituvchi uchun ta’lim jarayoni o‘quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog‘langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o‘zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o‘quvchilarning bilish faoliyati va o‘qituvchining pedagogikfaoliyati bir-biriga uyg‘un ravishda tashkil etilgandagina o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroqo‘rganish maqsadga muvofiq. Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning, o‘quvchilarning o‘tgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o‘rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o‘qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan “Keys”, “Insert”, “Waster”, Venn diagrammasi, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalami o‘qitishda “Keys”dan foydalanish yuqori samara beradi. “Keys” — case studies ingliz tilidan olingan bo‘lib, jarayon yoki vaziyat degan ma’noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlami o‘qitishda foydalanilgan bo‘lib, hozirgi paytda o‘qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlaming tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ularni hal etish uchun o‘quv munozaralari tashkil etiladi. Biologiyani o‘qitishda dastur mazmunidagi evolyutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali “o‘simgliklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi”, “hayvonot olamining paydo bo‘lishi va rivojlanishi” kabi mavzularni o‘qitishda foydalanish mumkin. Ta’lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o‘qituvchi:

- dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o‘qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi;
- dars davomida muammoli savol-topshiriqlaming qiyinchilik darajasiga ko‘ra yakka tartibda yoki o‘quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlami tashkil etilishini aniqlash.
- o‘quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o‘quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo‘llarini rejalashtirishi;
- muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o‘rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert — lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib,



o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilami Insert yordamida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar har bir jumlanı o‘rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi. Agar jumlada berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, “Bilaman” - V, agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda “Ma’qullayman” +, agar ma’lumotlar o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda “o‘rganish lozim” —, o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda “Tushunmadim?” belgisini qo‘yadi. Biologiyani o‘qitishda maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatish va qulay ijtimoiypsixologik muhitni vujudga keltirishi o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Muammoli ta’lim texnologiyasida aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, ijodiy faoliyatga yo‘llash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish funksiyalari etakchi o‘rinni egallaydi, qolgan funksiyalar ularga go‘yoki bo‘ysunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.N. Azizzojayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. — T.: 2003, TDPU.
2. N.N. Azizzojayeva. Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o‘quv yurti o‘qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo‘llanma. T.: 2007.



BOTANIKADAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA O’QUVCHILAR BILIMLARNI KENGAYTIRISH

Jabbarova Muborak Taxirovna

Urganch shahar 7-son mакtab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (90) 719 96 35

j.muborak_scool7@inbox.uz

Ismailova Barno Soburovna

Xiva shahar 7-son mакtab o‘qituvchisi

Telefon: + 998 (91) 997 98 87

barnosoburovna_9887@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola botanikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘simliklar haqida bilimlarni kengaytirish usullari haqida.

Kalit so‘zlar: Sinfdan tashqari mashg‘ulot, botanika, o‘simlik, kolleksiya, gerbariy.

Botanika kursi bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingen bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, o‘simliklarni, tabiatni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, o‘quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, vaqt ni tejash imkoniyatini beradi. Botanika fanidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki bu o‘quvchilarning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va o‘simliklarga, tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Botanika bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o‘rganish va muhofaza qilish, o‘simliklarni o‘sirish, parvaish qilish, muhofaza qilish va ularni payhon qilmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan xilma-xil mashg‘ulotlar kiradi. Bu mashg‘ulotlar darslarni takrorlamasligini va faqat darslarda olingen bilimlarga asoslanishi lozim. Bizning kuzatishlarimizda botanika kursi bo‘yicha sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o‘ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo‘lish mumkin deb hisoblaymiz. Birinchi guruhga ko‘plab o‘quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar, ikkinchi guruhga-cheklangan o‘quvchilar doirasida qiziqqan ayrim o‘quvchilar bilan olib borish maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ommaviy tarzda o‘tkazilganda sayohat va tematik kechalar tashkil qilish turlarini tanlagan yaxshiroq. 5-6-sinf o‘quvchilarini sinfdan

tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘simliklar bilan tanishtirish maqsadida har bir o‘qituvchi o‘zi yashaydigan hududning geografik, iqlimiylar va yil fasllariga bog‘lagan holda sayohat darslari rejasi va qiziqarli kechalar tashkil qilish senariysini tuzishi kerak. Sayohatlarning kalendar rejasi o‘quv yilining boshida bir yil uchun choraklar bo‘yicha tuziladi, har bir sayohat jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Olib borgan kuzatishlarimizdan botanikada ko‘pgina dars mashg‘ulotlarini tabiatga sayohat uyushtirish bilan muvaffaqiyatli o‘tilishi mumkin. Agar tabiat qo‘ynidagi o‘simlikni ko‘rish lozim bo‘lsa, u vaqtida albatta sayohat tashkil qilish kerak. Sayohatlar avval qaror topgan tushunchalarni mustahkamlaydi, aniqlaydi, chuqurlashtiradi va umumlashtiradi. Sayohatlar darslar bilan chambarchas bog‘lanadi; sayohatda ko‘rilgan ob‘ektlar jarayon davomida ko‘p marta olinadi, to‘plangan gerbariyalar, o‘simlikning turli organlari bir qancha narsalar esa namoyish qilinadi. Yakunlovchi sayohatlarda o‘quvchilar avval olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydilar, topshiriqlar bo‘yicha mustaqil kuzatishlar o‘tkazadilar va material yig‘adilar. Sayohat tashkil qilishda fan o‘qituvchisi kuzatish ob‘ektlarini suhbatning shakli va mazmunini sinchiklab o‘ylab belgilash kerak, toki kuzatiladigan ob‘ekt o‘quvchilarda chuqur qiziqish, kattalarning mehnatida ularga yordam berishga intilishni vujudga keltirsin. Sayohat natijasi sifatida bajarilgan ishlar bo‘yich albomlar, gerbariyalar, yani kolleksiyalar, ko‘rgazmali qurollar tayyorlanadi.

Sayohat vaqtida to‘plangan material darsda, uyda yoki darsdan tashqari vaqtida maktabda ishlanadi (tartibga keltiriladi). Ulardan gerbariy va kolleksiyalar tayyorlanadi, ular tarqatma material bo‘lib xizmat qiladi. Sayohat darsidan so‘ng o‘simliklar dunyosi aks etgan turli vedioroliklar va vediolavhalaning o‘quvchilarga taqdim etilishi nafaqat amaliy darsni mustahkamlashga qolaversa



o‘quvchilarda AKT ga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi. Tabiatni, atrof-muhitni, umuman ekologiya sevishga o‘rgatadi. Ekologik madaniyating shakllanishiga asos bo‘ladi. Shu maqsadda shuningdek rasmlar, albomlar, har xil yasalgan narsalardan ham foydalaniladi. Xulosa o‘rnida sayohat insonning tabiatga ta’sirini, o‘simliklarni ko‘rgazmali ko‘rsatish imkonini beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanimgan adabiyotlar ro’yhati:

1.R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.2004.

2. A.Bahromov va b. Tabiatshunoslik. 3-sinf. Toshkent – 2019.



BIOLOGIYA DARSLARIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Kabilova Muxarram Abduhakimovna

Navoiy viloyat Zarafshon shahar
1- sonli XTCChO'IDU mактабнинг
биологияни оқитувчиси

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlar laboratoriya xonalarining jihozlanishi, ularga qo'yiladigan talablar, laboratoriya ishlarini tashkil etishda uchraydigan muammolar va ularni hal qilish ishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: biologiya, laboratoriya, plakat, tabiiy fan, tajriba, AKT, xona, jihoz, mashg'ulot, muammo, asbob-uskuna, vazifa.

Tabiiy fanlar insoniyatni borliq, jonli va jonsiz tabiat hamda unda kechadigan jarayonlar va shu asosida yuzaga keladigan qonuniyatlar bilan tanishtiradi. O'quvchilarni tabiatni sevishi, tabiiy borliqni tushunib yetish, tabiatdan o'rinni foydalanib, uni e'zozlashga, tabiiy boyliklarni muhofaza qilishga o'rgatadigan fanlardir. Tabiiy fanlar bo'yicha o'quv-laboratoriya xonalarini jihozlash va uni yil davomida boyitib borishni hisobga olish, undan foydalanish uchun har doim tayyor holda turishini ta'minlash asosiy vazifalardan biridir.

Fan xonasi jihozlari alohida har bir fan talablariga javob beradigan muayyan tizimda joylashtirilishi lozim. Tajriba o'tkazish uchun mo'ljallangan asboblar so'nggi fan texnika yutuqlari darajasida bo'lishi, texnik estetikasi, xavfsizlik texnikasi, mehnat gigienasi talablariga javob berishi lozim. Shu sababli o'quv va laboratoriya xonalari o'quv asbob-uskunalaridan foydalanishda zarur bo'lgan umumiy talablar mavjud. Ular quyidagilardan iborat.

Pedagogik talablar: O'quv va laboratoriya xonalari, undagi jihozlar hamda vositalar darsda o'rganiladigan mavzu mazmunini yoritishga, o'quvchilarning ob'ektlarning tuzilishini to'liq tasavvur etishlariga yo'naltirilishi bilimlarni yodda saqlash va amaliyotda qo'llashga yordam berishi, ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshirish, shuningdek ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning fan asoslarini puxta o'zlashtirishlari uchun, o'quv va amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirishi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash va kasb tanlashlariga yordam berishi lozim.

O'quv-laboratoriya xonasiga qo'yiladigan xavfsizlik va gigiena talablari: Xonadagi o'quv jihozlarining barchasi ta'limning texnikaviy vositalari va mehnat gigienasi hamda xavfsizlik texnikasi talablariga javob berishi lozim. O'quv xonasida texnik vositalar (asboblar)ni ishlatish va saqlash qoidalarini eslatib turuvchi (eslatmalar) bo'lishi kerak. Xavfsizlik texnikasi va gigiena talablariga to'liq rioya qilish baxtsiz xodisalarni hamda turli kasalliklarning oldini olishning ishonchli garovidir.

Estetik talablar: Xonaga qo'yilgan har bir jihoz, shuningdek, ularning elementlari va umumiyo ko'rinishi go'zallik qonuniyatlariga javob berishi, o'quvchilarning badiiy didini tarbiyalashi o'quvchida ham, o'qituvchida ham qoniqish xissini hosil qilishi kerak.

Bugungi kunda tabiiy fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida quyidagi muammolarni ko'rishimiz mumkin:

- o'qituvchilarning mashg'ulot turini bilmasligi;
- o'quv dasturi asosida zarur bo'lgan jihozning yo'qligi;
- jixozlarning saqlanishi talab darajasida emasligi;
- fan o'qituvchilarining mavjud jihozlardan foydalanishni bilmaligi;
- laborantlarning fan asoslarini hamda jihozlardan foydalanishni bilmaligi;
- fan o'qituvchilarining AKT savodxonligi yo'qligi;
- fan o'qituvchilarining multimedia vositalari hamda virtual laboratoriyalardan foydalanishni bilmaligi va hakozo.

Yuqorida muammolarni hal etishda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish zarur.

1. Fan o'qituvchilariga o'qitish shakllari va metodlari to'rishidagi ma'lumotlarni yetkazib berish.

2. O'quv dasturi asosida zarur bo'lgan yo'q jihozlarni olish uchun yuqori tashkilotlarga talabnomaga berish.



3. “Barcha ta’lim muassasalarining mebel, o‘quv-laboratoriya asbob- uskunalarini, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va inventarlaridan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to‘grisida”gi Yo‘riqnomalar bilan tanishtirish hamda ushbu yo‘riqnomalar asosida ish olib borishlarini nazoratga olish.

4. Fan o‘qituvchilari bilan laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish bo‘yicha o‘quvlar tashkil etish.

5. Fan o‘qituvchilarining AKT savodxonligini oshirish bo‘yicha mahorat darslarini tashkil etish.

6. Fan o‘qituvchilarini multimedia vositalari hamda virtual laboratoriylar bilan ta’minlanishiga erishish va foydalanish boyicha tavsiyalar berish.

7. Hududlarda tashkil etilgan “Mahorat maktablari” rejalariga laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘quv-laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etish.

8. Hududiy XTXQTMOI larida malaka oshirishga yuborish.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib bugungi zamon talablari asosida fan o‘qituvchilarida quyidagi:

-laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish ko‘nikmasi;

-ta’lim mazmunini o‘zlashtirilishi asosida yangi va samarali innovatsion texnologiyalarni yaratish hamda joriy etish ko‘nikmasi;

-zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmasi;

-fanga oid elektron axborot vositalarini bilish va ulardan foydalana olish ko‘nikmasi;

-elektron axborot vositalarini yarata olish va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tabiiy fanlar o‘qituvchilari o‘qitishning moddiy-texnik bazasini tashkil etishlari, saqlashlari va undan samarali foydalanishlari orqali o‘quvchilarda ta’lim mazmunini shakllantirish va rivojlantirishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bugun o‘quvchiga faqatgina nazariy bilimlar berishning o‘zi yetarli emas. Ularda amaliy ko‘nikma va malakalarini hosil qilish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bunda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni beqiyos ekanini doimo yodda tutish, darslarga yuqori saviyada tayyorgarlik ko‘rish biz – pedagoglar oldida turgan asosiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.O.Tolipova, A.T.G`ofurov. Biologiya ta’limi texnologiyalari.
2. Matabda biologiya. Ma`naviy – ma`rifiy ta’limiy jurnal.
3. Internet saytlari.



BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Madyorova Oybibi Xudayberganovna

Hazorasp tumani 43-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (94) 313 47 48

madyorova.oybibi_4748@inbox.uz

Masharipova Dilrabo Otaboyevna

Xonqa tumani 2-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 772 55 42

masharipova.dilrabo_55@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida zamonaviy ta'lism vositalaridan foydalanish haqidagi.

Kalit so'zlar: biologiya, zamonaviy dars, innovatsiya, video ma'ruza.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Video ma'ruzalar shaklida o'qituvchi ma'ruzasi videotasmaga yoziladi, chiziqsiz montaj usulida u multimedia, ilovalar, ma'ruzani bayon qilishning ko'rgazmali vositalari bilan to'ldiradi.

Bunday to'ldirishlar ma'ruza mazmunini nafaqat boyitadi, balki uni bayon qilishning jonliroq va tinglovchilar uchun qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Elektron entsiklopediya - bunga misol qilib «katta entsiklopediya»ni olish mumkin. Bu elektron entsiklopediyadan dars uchun zarur bo'lgan jadvallar, sxemalar, o'simlik va hayvonlar sistematikasi, multimediali panorama (“Hayot evolyutsiyasi”, “Yer ekosistemalari”) videolavhalar (“Yovvoyi hayvonlar hayoti”) audio yozuvlar (“Hayvonlarning tovushlari”) foto-albomlar (“Yirtqich hayvonlar”) kabi juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin.

Har kim – har kimga o'rgatadi texnologiyasidan biologiya darslarida foydalanish yaxshi natijani beradi. Bu uslub o'quvchilarga o'rgatuvchiga aylanish, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qitish uslubidir. Bu uslubning maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborotlarni yetkazib berish, ayni paytda o'quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishidir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi.

Axborot texnologiyalari asosida umumiyl o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilib, o'tkaziladigan o'quv jarayonini samaradorligini oshirish uchun yangi turdag'i, ya'ni electron o'quv adabiyotlarni va laboratoriya mashg'ulotlariga doir virtual laboratoriylar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Virtual laboratoriylarning yaratilishi natijasida laboratoriya sharoitida o'tkazilishi mumkin bo'lmagan (zaharli moddalar, kamyob moddalar, ko'zga ko'rinxaydigan ob'ektlar ustida olib borilayotgan tajribalar) ishlarni bajarib ko'rsatish va ular yordamida o'tkazilayotgan ishlarni ekologik toza muhitda bajarish imkoniyatini beradi.

Laboratoriya ishlarni virtual laboratoriylar ko'rinishida kompyuter imitatsion modelini yaratish quyidagi:

- virtual laboratoriylar uchun maxsus jihozlangan xonalar talab qilinmasligi;
- laboratoriya mashg'ulotlarida ro'y berayotgan jarayonlarni kompyuter imitatsion modeli orqali ob'ektning ichki va tashqi xossalarni kuzatish hamda namoyish qilinishi;



- laboratoriya sharoitida o‘tkazish mumkin bo‘lmagan jarayonlarni virtual namoyish qilish;
- masofadan o‘qitish ta‘lim turi uchun o‘quvmateriallari bazasi sifatida foydalanish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi, 2000.
- 2.Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O‘qituvchi, 2004.



“OROL FOJEASI” VA UNI BARTARAF ETISH YO’LLARI.

Dots. MALIKOVA A.R.,
magistr XUDAYAROVA SH.R.
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta’siri natijasida atrof-muhitda sezilarli o’zgarishlar ro’y bermoqda. Jumladan, iqlim o’zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o’rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda. Shu sababli, mazkur maqolada Orol fojeasi xaqida keng yoritilib berilgan bo’lib uning bartaraf etish yo’llari xam aytib o’tilgan.

Kalit so’zları: Orol, tabiat, dastur, ifloslanish darajasi

Tabiat - insonning moddiy va ma’naviy talablarini qondiruvchi birinchi manba. Shu sababdan ham tabiat va jamiyat o’rtasidagi munosabatlар qadimdan to hozirgi kunga qadar barchani qiziqtirib kelgan muhim masalalardan eng asosiysi hisoblanadi. Jamiyat tabiatning ajralmas, ammo boshqa qismlaridan farqli ularoq, atrof - muhitga nisbatan ongli va faol munosabatda bo’ladigan qismidir.

Jamiyatning tabiatga ta’sirini tartibga solish va uning ta’sirini bartaraf qilish maqsadida atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof tabiiy muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini bashorat qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta’minalash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof-muhitga ta’siri monitoringini amalga oshirish to`g’risida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 03.06. 2021 yildagi “Atrof muhitni ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to`g’risidagi” qarori qabul qilindi.

Qarorga binoan 2021-2025 yillarda O’zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturi (keyingi o’rinlarda - Dastur) tasdiqlandi.

Dasturda suv resurslari, atmosfera havosi va tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalar monitoringi, atmosfera havosi, yer usti va yer osti suvlari hamda yerlarning ifloslanishi monitoringi, xavfli ekzogen geologik jarayonlar monitoringi, ko’llar ekotizimlari monitoringi, o’simlik va hayvonot dunyosi obyektlari monitoringi, atrof-muhitning transchegaraviy ifloslanish monitoringi, atrof tabiiy muhit davlat monitoringining elektron ma’lumotlar bazasini yagona geoaxborot ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish, tahvil laboratoriylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va o’lchov-nazorat asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish, ilmiy ishlar va innovatsion tadbirlarni amalga oshirish belgilab berildi.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta’siri natijasida atrof-muhitda sezilarli o’zgarishlar ro’y bermoqda. Jumladan, iqlim o’zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o’rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta’sirida o’zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta’sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda, tabiiy resurslar, ayniqsa, suv va energetika resurslaridan oqilona foydalanish eng jiddiy muammolardan biri bo’lib qolmoqda.

O’tgan asrnинг ikkinchi yarmida amalga oshirilgan yirik transchegaraviy daryolarni o’ylamay tartibga solish natijasi o’laroq, mintaqamiz ekologik halokat yoqasiga kelib qoldi. Bunga dalil sifatida “Orol fojiasi”ni keltirish mumkin. Qariyb bir asr davomida Orol haqiqiy ichki dengizdan qurib, yo’qolib borayotgan suv havzasiga, Orol bo’yi hududlari esa cho’l-u biyobonga aylanib bormoqda.

Avval dengiz yirik transport, baliqchilik va xo’jalik hamda iqlim ahamiyatiga ega edi. Ma’luki, oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib, akvatoriya maydoni 4 martadan kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamayib, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli «o’lik” dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. hektarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuzli aerozollarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 90 tonnadan 100 mln. tonnagacha chang ko’tariladi. Shu bilan bir vaqtida, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzuluga uchrashi va cho’llashish sur’atlari o’sib bormoqda.

Orolbo’yi aholisi uchun ichimlik suvining asosiy manbasi – Amudaryo suvi bo’lib, undagi har



xil tuzlar, kimyoviy elementlar va birikmalar borligi tufayli ichimlik suvi sanitariya me’yorlariga to’g’ri kelmay hududda epidemiologik vaziyat vujudga kelishiga sharoit tug’diradi.

Bugungi kunda Orol dengizini o’rnida asosan 3 ta qoldiq ko’llar hosil bo’lgan. Orol dengizining qurib ketgan yerlaridan shamol orqali havoga tuz va chang ko’tarilib, yuzlab kilometr hududlarga tarqalmoqda. Bu nafaqat Orolbo’yi, balki undan uzoq hududlarda ham qurg’oqchilikni keltirib chiqarmoqda. Orolning qurigan tubidan ko’tarilgan chang-to’fonlari ilk bora 1975 yili kosmik tasvirlar natijasida aniqlangan, hozirda esa ular oddiy holga aylangan. O’tgan asrning 80-yillaridan boshlab bunday to’fonlar yiliga 90 kungacha cho’zilgan. [2]

Orol dengizi yaroqsiz holga kelguncha aholiga baliq yetishtirish bo’yicha oldingi o’rinlarda bo’lib, Orolbo’yi havzasidagi yillik baliq ovlash hajmi 30-35 ming tonnani tashkil qilgan. Bu yerlarda yashovchi aholining 80 foizdan ko’prog’i baliq va baliq mahsulotlarini ovlash, mahsulot tayyorlash va yetkazib berish bilan band bo’lgan.

Orol dengizining qurishi natijasida mahsulorligi yiliga 45 ming tonnagacha ovlangan baliqchilik sanoati, tub aholining doimiy hayot manbai bo’lgan ovchilik va mo’ynachilik sohalari inqirozga uchradi.

Orol dengizining halokatga uchrashi Ona tabiatimizga ham katta zarar yetkazib, mintaqada hayvonot va o’simlik olamining deyarli yarmidan ko’pi, ya’ni baliqlarning 11, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o’simlikning 11 turi yo’q bo’lib ketgan.

Bugun Orolbo’yi mintaqasini qayta tiklash muammolarini yengillashtirish, aholi salomatligi va genofondini saqlash, ekotizimlarni qayta tiklash va himoya qilish, aholining munosib hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifa bo’lib kelmoqda.

Yuzaga kelgan muammoni bir yoki ikki davlat o’zi qila olmaydi. Uni hal etishda Yer yuzidagi barcha davlatlarning hamkorligi, ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi.

2021 - 2025-yillarda O’zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturida belgilagan tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunda bajariladigan asosiy va muhim vazifalarini belgilab beradi.

Orol va Orolbo’yi muammosini yechishdagi uchta asosiy yo’nalishlar ya’ni, birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitар-epidemologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e’tibor qaratildi. Sog’liqni saqlash va sanitariya xizmati darajasini keskin yuqoriga ko’tarish zarurligi uqtirildi; ikkinchidan, dengizning qurigan janubiy qirgoqlarida sun’iy damba qurib, delta eksosistemasini doimiy suvlashtirish yo’li bilan «Yashil kamar» hosil qilish; uchinchidan, dengizni o’zini saqlash. Uni saqlash uchun unga sistematik ravishda ko’p miqdorda suv yuborib turish kerakligi va bundan tashqari Orolni qurigan tubida saksovulzorlar barpo etish natijasida qum ko’chishi, chang ko’tarilishini oldini olinishi mutaxassislar tomonidan amalga oshirish yo’lga qo’yilmoqda. Zero, tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlari ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insонning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo’lgan farzandlik burchidir.

Adabiyotlar:

- 1.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida” - 04.06.2021yildagi 343 sonli qarori.
2. S.Roziqov K, To’xtayev S, Nigmatov A, Sultonov R . Ekoliya va atrof- muhit haqida yetti saboq . T., “Bioekosan”, 2004 y.
3. Ekoliya va hayot. -T., “Oz’bekiston”, 2002



**BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV
ZAMONAVIY TALABLAR**

Matkarimova Hovvajon Sultanovna

Xiva shahar 3-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 445 10 20

h.matkarimova_1020@inbox.uz

Tilavboyeva Sevara Yangibayevna

Gurlan tumani 26-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: + 998 (99) 362 22 90

sevara.tilavboyeva_26@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola biologiya darsini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish jarayoni va unga qo‘yilgan zamonaviy talablar haqida.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, o‘qitishning asosiy shakli, DTS bilan me’yorlangan, metodik talablar.

Dars biologiyani o‘qitishning asosiy shakli bo‘lib, uning tuzilishi, tashkil etilishi, unda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalari biologiya o‘qitish metodikasining asosiy muammosi sanaladi. Darsda o‘quv dasturi talablari asosida ta’lim-tarbiya uzbekligini ta’minlash, bu jarayonda o‘qitish metodi, vositalaridan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, DTS bilan me’yorlangan ta’lim mazmuni va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish, ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash amalga oshiriladi.

O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifati va o‘qitish samaradorligi darsning tashkil etilishi, ularda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalariga bog‘liq bo‘ladi. Dars biologiya o‘quv dasturi bilan me’yorlangan mazmuni o‘rganish maqsadida yoshi, tayyorgarlik darajasi bir xil, doimiy tarkibga ega bo‘lgan o‘quvchilardan iborat guruh (sinf) larda belgilangan vaqt doirasida, qat’iy jadval asosida biologiya o‘quv xonasida tashkil etiladi.

O‘rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, darslar tirik tabiat burchagida, o‘quv tajriba maydonida, biologik muzeylarda tashkil etilishi ham mumkin. Biologiya o‘quv dasturida ta’lim mazmuni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zahiralari hisobga olingan holda berilgan. Biologiya o‘quv fanlarining mazmuni mantiqiy ketma-ketlikdagi alohida qismlar – boblar, mavzularga bo‘lingan. Har bir mavzu mazmunini o‘rganish darslarda amalga oshirganligi sababli, darslar ham muayyan sistemani tashkil etadi, bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan bo‘ladi.

Darsda o‘qitish hamma o‘quvchilar uchun umumiy bo‘lgan o‘quv dasturi asosida tashkil etiladi, o‘qituvchi o‘rganilaётган mavzu mazmuni, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga muvofiq, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshiradi. Demak, o‘quvchilarning darsdagi faoliyati ularning o‘quv-bilish faoliyatini, o‘qituvchining faoliyati esa shu faoliyatni tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat sanaladi.

Darsda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati, o‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan uyg‘un tashkil etilgandagina o‘qitish maqsadlariga erishish mumkin. Har bir dars o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malaka-larni egallash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, aqliy rivojlanishi, shaxs sifatida tarbiyalash, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi va biologiyani o‘qitishdan nazarda tutilgan umumiy maqsad va vazifalarning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘sadi.

Darsning muvaffaqiyatli tashkil etilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining darsga qo‘yiladigan talablarni bilishi, unga amal qilishiga bog‘liq. Mazkur talablar jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ma’naviy-marifiy qarashlari, ta’lim muassasalarining maqsadi va vazifalari, o‘qitish qonuniyatlari va prinsiplaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Biologiya o‘qitish metodikasida darsga qo‘yiladigan talablar uch guruh (metodik, tarbiyaviy va tashkiliy talablar)ga ajratiladi.

Metodik talablar jumlasiga:

- har bir darsning ta’limiy maqsadlari va uning darslar sistemasida tutgan o‘rnini aniq belgilash;
- o‘quvchilarning tayёрgarlik darajasi, o‘qitish maqsadlari, o‘quv dasturining talablariga mos holda o‘quv materialini optimal darajada tanlash;
- darsda rivojlantiriladigan umumiy va shakllantiriladigan xususiy biologik tushunchalar, tarkib



toptiriladigan ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalarni aniqlash;

- darsning har bir bosqichini amalga oshirish maqsadida o‘qitishning samarali metodlari, vositalari, bilimlarni nazorat qilish va rag‘batlantirish metodlarini aniqlash va ularni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;

- darsda o‘quvchilarni yalpi o‘qitish bilan bir qatorda yakka va kichik guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil etish orqali ularda tahsil olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini orttirish, mustaqillikni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin.

Darsga qo‘yiladigan tarbiyaviy talablar:

- o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy-ahloqiy, aqliy, gigienik, jismoniyligi, jinsiy, iqtisodiy tarbiya berish, estetik tuyg‘u, mehnatsevarlik, ekologik madaniyatni tarkib toptirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy maqsadlarining aniq qo‘yilishi;

- o‘quvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalari, biologiyani o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini rivojlantirish, ularning faoliyatidagi ijodiy faollilik va tashabbuskorlikni rag‘batlantirish;

Biologiya o‘qituvchisi ushbu talablarni yaxshi bilishi, darslarga tayyoragarlik ko‘rish va o‘tkazishda, albatta, ularga amal qilishi lozim. Biologiyani o‘qitishda darslar tizim holda qo‘llaniladi, shu sababli o‘qituvchi dars tiplari va turlarini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolipova J. O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: TDPU, 2012.
2. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T.: Biologiya ta’limi texnologiyalari, O‘qituvchi, T.: 2002.
3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. T.: Ilm-Ziyo nashriyoti, 2012.



BIOSFERA EVOLUTSIYASI

Matsafayeva Xurshida Safarbayevna

Gurlan tumani 29-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (97) 511 18 76

m.xurshida_29@inbox.uz

Melibayeva Irodaxon Kamiljon qizi

Xiva shahar 12-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 043 06 60

mk.irodaxon_0660@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola biosfera evolutsiyasi bosqichlari va biogenez bosqichi haqida.

Kalit so‘zlar: Biosfera, biosfera evolutsiyasi, atmosfera, litosfera, gidrosferani, tropasfera, stratasfera.

Biosfera (yunoncha «bios»-hayot, spharia – shar) tirik mayjudotlar tarqalgan yer qobig‘idir. Uning tarkibi, tuzilishi va energetikasi tirik organizmlar faoliyati majmuasi bilan belgilanadi. Biosfera o‘zida tirik notirik komponentlarni hamda bir butunlikni tashkil etadi. U litosferaning yuqori qismini, butun gidrosferani, tropasfera va stratasferaning quyi qismini o‘zida qamrab olgan. Biosfera to‘g‘risidagi ta‘limotni akademik V.I. Vernadskiy yanada rivojlantirgan. Ekologiya uchun biosfera ta‘limotining ahamiyati juda kattadir. Chunki biosfera tirik va notirik tabiatning oliy darajadagi o‘zaro ta‘siri va ekotizimlar majmuidan iboratdir.

«Biosfera» atamasini fanga ilk bor Avstriyalik tabiatshunos olim E.Zyuss (1875-1914) kiritgan. O‘z mohiyatiga ko‘ra, biosfera Yerdagi turli xil o‘t-giyoh va boshqa o‘simliklardan tortib, to ulkan ko‘p yillik daraxtlargacha, ko‘zga ko‘rinmaydigan mikroorganizm (virus, mikrob, bakteriya va b.) lardan nihoyatda yirik hayvon (tuya, fil, kit va b.) largacha bo‘lgan tirik organizm majmuidir. Odamlar ham, so‘zsiz, biosfera unsuri hisoblanadi. Shu bilan birga, inson uchun esa barcha biosfera unsurlari eng muhim hayotiy omillar manbai hamdir.

Umuman, biosfera tushunchasi ikki xil ma‘noda ta‘riflangan. Birida biosfera yerdagi barcha tirik organizmlarning majmuasi tarzida tushunilgan. V.I Vernadskiy esa tirik va notirik organizmlarning o‘zaro ta‘sirini o‘rganib, biosfera tushunchasini yangi ma‘noda anglaydi. U biosferani tirik va notirik tabiatning birinchi sohasi tarzida tusuunadi.

Olimning biosfera tushunchasini bunday talqin qilishi Yerda hayotning paydo bo‘lishi muommosiga bo‘lgan qarashlarini ifodalaydi.

U bir necha variantlardan iborat:

1. Hayot yer paydo bo‘lgunga qadar yuzaga kelgan va uni butunlay qamrab olgan.
2. Hayot yer paydo bo‘lgandan keyin yuzaga kelgan.
3. Hayot yerning shakllanish jarayonida yuzaga kelgan.

Vernadskiy uchunchi variantni ma‘qullagan va bizning sayyoramizda qachonlardir hayot izlari yoki tiriklik namunasi bo‘limgani haqida ishonchli ilmiy dalil yo‘qligini e‘tirof etgan.

Boshqacha aytganda, uning nazarida biosfera Yerda hamisha bo‘lgan. Shunday qilib, olim biosfera deganda YERning nozik qobig‘ini tushungan. Undagi barcha jarayonlar tirik organizmlarning bevosita ta‘sirida kechadi. Biosfera uzoq tarixiy davrlardan boshlab doimo rivojlanishdadir. U Ona sayyoramizdagagi hayot qobig‘ini, tirik organizmlarning o‘zaro chambarchas aloqa va munosabatlardan iborat murakkab ekologik tizimlar majmuini tashkil etadi.

Atmosferada hayotning eng yuqori chegarasi 16-20 km balandlikdagi yupqa ozon qatlami bilan belgilanadi. Okeanlarning ham deyarli barcha qismida hayot mavjuddir. YERning qattiq qismida hayot 3 km va hatto undan ham chuqurroqqa kirib borgan. (neft konlaridagi bakteriyalar).

Yer sirtida kimyoviy elementlarning tarqalishini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, tirik moddalarda mujassamlashgan birorta element yo‘q. Akademik V. I. Vernadskiy ta‘riflagan biogeokimyoviy tamoyillar quydagicha:

1. Biosfera kimyoviy elementlarning biogen migratsiyasi mavjud bo‘lib, u o‘zini maksimal darajada namoyon etishga intiladi. Afsuski bugungi kunda bu tamoyil inson faoliyati doirasi kengayishi tufayli buzilgan.
2. Turlarning evolyutsiyasi atomlarning biogen migratsiyasini taboro kuchaytiradi.
3. Tirik modda o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit bilan uzlusiz ravishda kimyoviy almashinuvda



bo‘ladi.

Bu tamoyillar buzilgan holda biosfera faoliyatini ta‘minlab turgan kosmik ta‘sirlar uni yemiruvchi omilga aylanishi mumkin. Tabiatdagi har qanday organizmlar notirik tabiat bilan uzviy bog‘liq sharoitdagina mavjud bo‘la oladi, hayot o‘zining butun namoyon bo‘lish jarayonida sayyoramizda katta o‘zgarishlar keltirib chiqargan evolyutsiya jarayonida takomillashib borgan tirik organizmlar butun sayyora bo‘ylab kengroq tarqalgan hamda energiya va moddaning qayta taqsimlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. J.O.Tolipova, A.T.G‘ofurov Biologiya ta’limi texnologiyalari - Toshkent: “O‘qituvchi” 2002
2. G‘ofurov.A.T, Tolipova.J.O va boshqalar Biologiya o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2013 yil.



BIOLOGIYA DARSALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Maxmudova Sharafatoy Nabiyevna

Farg’ona viloyati Marg’ilon shahar

2- son kasb-hunar maktabi

biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli haqida, biologiya darslarida axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: biologiya, axborot texnologiyalari, ko’rgazma, nazorat, dars, vazifa, taqdimot, uzlusiz ta’lim, dastur.

Biologiya tirik mavjudotlarning atrof-muhit bilan o’zaro aloqalarini o’rganuvchi ilmiy-tadqiqot fani hisoblanadi. Bir o’lcham tasvirlariga ega darslik yordamida o’rganishda barcha organlar qismlarini va ularning funksiyalarini tushunish qiyin.

Biologiya darsliklarida tasvir va diagrammalar ko’p. Odam tanasining uch o’lchamda tasvirlangan va har bir organ faoliyati aks ettirilgan virtual taqdimotlar o’quvchilar ongida uzoq vaqt esda qoladi.

Hujayraning tuzilishini darslikdano qibtushunish birmuncha murakkab. Ko’rgazmalitas virlardan foydalanilsa tasavvurlar yanada yorqin va tushunarli bo’ladi. Hozirda avvalgidek sinf taxtasida bo’r bilan yozish va ko’rgazma rasmlardan foydalanish vaqt o’tdi. O’quvchilar yangi tushunchalar haqida rasmiy bilimlarni to’plamasdan, balki ularni tushunib olishlari juda muhim. Biologiya fanini o’qitish yanada samarali bo’lishi uchun o’quv mashg’ulotlari davomida o’qituvchilar axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqishlari va undan foydalanishni rag’batlantirishlari zarur. O’qituvchilar yanada samarali o’qitish uchun proyektorlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib, jonli o’quv sinflarini tashkil etishi lozim. Buning uchun fan o’qituvchilari dars o’qitish uchun Word, Excel, Power Point, Flash, Movie Maker kabi turli dasturiy ta’minotlardan va boshqa “web” vositalardan foydalanishni o’zlashtirib olishlari shart.

Hozirgi zamon mutaxassislari faoliyat doirasi qanday bo’lishidan qat’i nazar, axborot texnologiyalari to’g’risidagi keng ko’lamdagи bilim va ko’nikmalar hamda ulardan foydalanish borasidagi malakalarga ega bo’lishi davr talabidir. Jamiyatning tobora axborotlashib borishi uzlusiz ta’lim tizimida ham axborot kommunikatsiya texnologiyalardan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Uzlusiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan o’qitish jarayonining samaradorligini orttirish yuzasidan qabul qilingan me’yoriy hujatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Biologiyani o’qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta’limi mazmunining o’ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish zarur. Biologiyani o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o’quvchilarning o’quv motivlarini rivojlantirish, tabaqlashtirilgan ta’limni tashkil etish, o’quvchilarning o’zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin. Biologiyani o’qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

-ta’limiy vazifasi - o’quvchilarga o’rganiladigan mavzu bo’yicha asosiy va qo’shimcha materiallar, asosiy tushuncha va ularning izohlari, turli jadvallar, diagramma, murakkab ilmiy va ishlab chiqarish xarakteridagi tajribalar to’g’risida keng qamrovli bilim berish imkoniyati vujudga keladi;

-o’quvchilarning o’quv faoliyatini yo’naltirish vazifasi - o’quvchilar axborot texnologiyalari mahsullari bo’lgan ta’lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, shuningdek, animatsiyalar vositasida ishslash barobarida, mazkur dasturlar o’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni ham o’zida mujassamlashtiradi, ya’ni o’quvchilarni chuqur va mustahkam bilim olishga yo’naltiradi;

-ko’rgazmalilik vazifasi - boshqa o’qitish vositalaridan farq qilib, axborot texnologiyalari mahsullari bo’lgan animatsiyalar o’quvchilar tomonidan biologik jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoniyati mavjudligi sababli, o’qitish jarayonida o’rni beqiyos;

-nazorat vazifasi - biologiya ta’limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan



tashqari darslarda, shuningdek, biologiya darsining barcha bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamroviligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi;

-rivojlantiruvchi vazifasi - o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi, o'quvchilarning bilimi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda bo'lishi keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi, fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishiga zamin yaratib shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini vujudga keltiradi;

-tarbiyaviy vazifasi - o'quvchilar axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalari rivojlanтирiladi;

-ilmiy dunyoqarashni rivojlanirish vazifasi- tabiat va undagi obyektlarni o'rganish, makro va mikro olamlarga ajratish, hujayra va to'qimalarda boradigan jarayonlar, modda va energiya almashinushi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasiga doir o'quv materiallarini animatsiyalar orqali o'rganish orqali tafakkur qilishi va ilmiy dunyoqarashi rivojlanadi.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyatga joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Hasanova. Biologiya darslarida axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O'quv qo'llanma. – T.: «Yangi asr avlodи», 2012
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya fani darsliklari.
3. A.Kenjabayev. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari.



VITAMINLAR VA ULARNING INSON ORGANIZMIDAGI VAZIFASI

Mirzayeva Osiyo Rajabboyevna

Hazorasp tumani 12-sон мактаб о’қитувчisi

Telefon: +998 (99) 775 26 81

mr.osiyo_99@inbox.uz

Sadullayeva Zulkumor Axmedovna

Hazorasp tumani 41-сон мактаб о’қитувчisi

Telefon: +998 (94) 233 40 54

sadullayeva.zulkumor_scol41@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada vitaminlar va ularni kashf qilinishi, vitaminlarning turlari va vazifalari haqida.

Kalit so’zlar: Vitaminlar, A vitamin, B guruh vitaminlari, C vitamin, D vitamin E vitamin, K vitamin.

Vitaminlar (lotincha “vita”-hayot) organizmning o’sishi va rivojlanishi uchun zarur bo’lgan biologik faol moddalardir. Vitaminlar inson organizmida moddalar almashinuvida ishtirok etadigan organik birikmalardir. Ular turli xil tuzilishga ega. Oziq moddalar tarkibida qandaydir moddalar yetishmasligi natijasida odamlar kasal bo’lishi to’g’risidagi ma’lumotlar qadimgi Xitoy kitoblarida, keyinchalik Gippokrat asarlarida qayd etilgan. Vitaminlarni ilmiy nuqtayi nazardan o’rganish 18-asrdan boshlangan. Ingliz vrachi J.Lind(1757-yil), Fransuz fiziologgi F.Majandi(1816-yil) Rus vrachi N. I. Lunin(1880-yil) golland vrachi Eykman(1897-yil) Ingliz olimi F Xopkins (1906) yillar vitaminlarni o’rganishga juda katta hissa qo’shdilar. Vitamin tushunchasini 1912-yilda K. Funk tomonidan fanga kiritilgan

Inson organizmi faoliyatida vitaminlarning o’rni nihoyatda katta ahamiyatga ega. Farzandlarimizning ham organizmi har tomonlama yaxshi rivojlanishida vitaminlar katta ro’l o’ynaydi. Odam bir kunda organizmiga etarli miqdorda turli xil taomlar, mevalar istemol qilishi orqali vitaminlarni qabul qiladi. Agar organizmda vitaminlar etishmasa, odamning mehnat qobiliyati, yuqumli kasalliklarga chidamliligi pasayadi.

Kishi o’zi uchun zarur vitaminlarni turli oziq ovqat moddalaridan oladi. Vitaminlarning 40 dan ortiq turi bo’lib ularning xar biri odam organizmida muhim fiziologik vazifani bajaradi. Agar bir necha hafta, oy davomida kundalik ovqat tarkibida biror vitamin muntazam yetishmasa, uning organizmida bajaradigan fiziologik vazifasi buziladi. Agar odam organizmida biror vitamin mutlaqo yo’qolsa

Avitaminoz, agarda birorta vitaminni miqdori kamaysa gipovitaminoz agarda biror vitaminni miqdori me’yoridan ortib ketsa gipervitaminoz deyiladi. Bu holatlarning har qaysisida o’ziga xos xastalik belgilari paydo bo’ladi.

Inson organizmiga vitamin yetishmaganda insonni mehnat faoliyati pasayadi, organizmning kasalliklarga hamda tashqi muhitning noqlay ta’siriga chidamliligi pasayadi. Hozirgi vaqtida ko’pgina vitaminlar o’rganilib sintez qilinmoqda.

Vitaminlar 2 turga bo’linadi. Suvda eriydigan: B kompleksi va S, PP, yog’da eriydiganlarga: A D E K vitaminlari kiradi. Vitaminlardan tashqari organizmda turli o’zgarishlarga uchrab vitaminga aylanadigan moddalar Provitaminlar xam bor. A - (retinol) bu vitamin o’sish rivojlanishda, ko’rish pigmentlarini hosil bo’lishida, terini normal o’sishida muhimdir. A VITAMINI hayvon yog’i baliq tuhum sut jigar mahsulotlarida bo’ladi.

D - (ERGAKALSIYFEROL) bu vitamin tuzlar almashinivi, suyaklanish, kalsiy va fosforni so’rilishida ro’l o’ynaydi. Bu vitamin baliq yog’ida ikrasida, jigarda bo’ladi va odam tanasi quyosh nuri tasirida sintezlanadi.

E - (tokoferol)muskullar va jinsiy bezlar faoliyatida muhimdir. Bu vitamin o’simlik yog’larida va yashil qismida va kungaboqarda ko’p bo’ladi.

K - (filloxinon) qon ivishi faktori. Ichakda mikroorganizmlar tomonidan sintezlanadi. C-(askarbin kislatasi) moddalar almashinivi ayniqsa oqsillar o’zlashtirilishida va to’qimalar regeneratsiyasida qatnashadi.

C - vitamin qalampir, limon, qaraqat, na’matak mevasi, ko’k piyoz, sut va sut mahsulotlarida bor.



B KOMPLEKS vitaminlari. B1-(tiamin)karbon suvlar almashinuvida qatnashadi, sholi, bug'doy, javdar doni mol jigari buyragi boladi, qisman ichakda sintezlanadi.

B2 (RIBOVLAVIN)o'sish oqsil yog' uglevod, almashinuvi va rang ko'rishda ishtirok qiladi. Pivo achitqisi, bug'doy doni, jigar, buyrak, qatiq tuhum, pamidor, karam, ismaloq tarkibida uchraydi.

Vitaminlar biologik faol moddalar bo'lib inson organizmida muhim vazifalarni yani moddalar almashinuvi jarayonini meyorida bo'lishini, inson organizmidagi kimyoviy reaksiyalarni kuchaytiradi va organizmga oziq moddalarni so'rilihini kuchaytiradi va inson organizmi o'sish rivojlanishiga yordam beradi. Vitaminlarni organizmda meyorida bo'lishi inson organizmini turli kasalliklardan va ular natijasida ayrim xolatlardagi insonni halok bo'lishidan saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. M.M.Abdulxayeva . Biologiya Toshkent 2018.
2. Ochil Mavlonov. Biologiya asoslari. Toshkent



TALABALARING INTERNET SAYTLARIDAN FOYDALANISH
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xonnazarova Mamlakat To'lqinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

“Zoologiya va anatomiya” kafedrasи o'qtuvchisi

E-mail: xonnazarova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Oliy ta'lrim muassasalari talabalariga zamonaviy elektron ta'lrim vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o'quv muassasasi uchun yaratilgan saytlar va ularning ahamiyati, internet manbalaridan foydalanish va buning ijobjiy imkoniyatlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lrim muassasalari, internet tarmog'i, internet saytlaridan foydalanish, AKT, axborotli internet manbalari.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish, uni zamon talablariga moslashtirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, oliy ta'lrim tizimida taxsil olayotgan har bir talabaning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan. Ushbu talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Yuqori malakali pedagog kadrlarga talab ortib borayotgan hozirgi sharoitda bo'lajak o'qtuvchilarning zamonaviy innovatsion, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalari, xususan internet saytlaridan foydalanishni mukammal darajada o'zlashtirib olgan kadrlar sifatida shakllantirishda tashkil etilayotgan ta'lrim jarayonlarining zamonaviylik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning ta'lrim jarayonlarida AKT bo'yicha yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati kengroq bo'lib, bu jarayonda internet saytlaridan foydalanish, xususan, o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar bilan tanishadilar. Quyida biz o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar, bu saytlardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritamiz.

O'quv muassasasi uchun yaratilgan saytlarning ahamiyati. Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi internetdan foydalanuvchilarning daqiqa sayin ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko'pchilik qismini albatta, ta'lrim oluvchilar, o'quvchilar, ilmiy izlanish bilan band bo'lgan xodimlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lrim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan o'quv muassasalariga bag'ishlangan veb - saytlardan foydalanish ta'lrim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi. Yangi axborot texnologiyalar vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda o'quv muassasasida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarning (umuman har qanday sohada faoliyat ko'rsatuvchilarning) zarur axborotlarni Internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishi, ular duch keladigan mavjud mutaxassisligiga oid muammolarni to'la va to'g'ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda. Ta'lrim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval Internet hizmatining turlari va ularning harakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir.

Internetdagи barcha —o'quv muassasa uchun yaratilgan saytlarni o'z navbatida bir necha turga ajratish mumkin: o'rgatuvchi internet manbalari; maslahat beruvchi internet manbalari; axborotli internet manbalari; baholovchi internet manbalari; taqdimotli internet manbalari.

Quyida ularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz:

O'rgatuvchi internet manbalariga masofaviy ta'lrim, virtual maktebalar, laboratoriylar va veb sinflarni misol sifatida keltirish mumkin.

Maslahat beruvchi internet manbalariga turli telekonferensiyalar, virtual pedagogik kengashlar, virtual uslubiy, birlashmalar muammoviy kengashlar, virtual kafelar va hokazolarni misol keltirish mumkin.

Axborotli internet manbalariga elektron o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, elektron kutubxonalar, lug'atlar, kataloglar, virtual muzeylarni keltirish mumkin.

Baholovchi internet manbalariga teletesting, masofaviy konkurslar, turli viktorinalar, olimpiadalarni misol keltirish mumkin.

Taqdimotli internet manbalariga ta'lrim muassasalarining ta'lrim yo'nalishlari haqida atroficha



ma'lumotlar yoritilgan alohida sahifalarni keltirish mumkin.

O'quv jarayonida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish talabalarga quyidagi ijobiy imkoniyatlarni beradi:

- internet tarmog'i yordamida u yoki bu o'quv fanlardan to'plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;
- bir vaqtning o'zida turli toifadagi ta'limga oluvchilar uchun har xil o'qitish uslublarini amalgalashish orqali o'quv jarayonini individuallashtirish;
- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida ta'limga oluvchilarda fan bo'yicha egallangan bilimlarni ko'nikma va malaka darajasiga etkazish;
- qo'lda bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan ta'limga oluvchilarga yakka tartibda ishslash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratish;
- ta'limga oluvchilarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish.

O'qitishda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish ta'limga oluvchilarda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'z hohishlariga qarab o'qish holatlarini tanlash; - tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga mos o'qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash; - oldin o'rganilgan materiallarga qaytish, o'qish jarayonini to'xtatib qo'yish va unga ixtiyoriy vaqtida murojaat qilish; - turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o'zaro ta'sirini kuzatish; - o'rganilayotgan ob'ektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko'rib borish; - kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagagi to'siqlardan holi bo'lishga (kulgu bo'lmashlik, jur'at etmaslik, uyalmashlik kabilar) olib kelishi; - tayyorgarlik darajalari etarli bo'lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning ta'limga sohasidagi quyidagi afzallikkleri mavjud:

- fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi; - tarmoq savodxonligini ortishi; - o'rganishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi; - mustaqil ta'limga va tadqiqotlar malakasini takomillashishi; - amaliy malaka samaradorligini oshirish.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi: • darslik; • audio va video darsliklar; • onlayn darslar (Internet sahifa); • elektron kutubxonalar; • testlar; • multimedia - elektron darsliklar va b.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. У.Бегимкулов, Т. Шоймардонов и др. Информационно-методическое обеспечение непрерывности образовательного протесса на основе электронного сопровождения. Материалы международной конференции. Санкт-Петербург (Россия), 2012 год.
2. A. Axmedov , N.Taylaqov . “Informatika”.T.: O'zbekiston 2008 yil
3. Yo'ldoshev J.G'. va boshqalar. Interfaol ta'limga sifat kafolati. – T.: «YUNISEF», 2008.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 22-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000